

## ADVOKATURA VA ADVOKATLIK FAOLIYATI PRINSIPLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA SUN'YI INTELLEKTDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

**Jalilov Nodirbek Komil o'g'li**  
**Toshkent davlat yuridik universiteti**  
**Uzluksiz ta'lim boshqarmasi**  
**boshlig'i o'rinbosari**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15727868>

**Annotatsiya:** Advokatlik faoliyatini rivojlantirish va uning fundamental prinsiplarini takomillashtirishda raqamli transformatsiya va sun'iy intellekt texnologiyalari muhim imkoniyatlar taqdim etmoqda. Ushbu maqola advokatura sohasida raqamli vositalar va sun'iy intellektdan foydalanishning amaliy va nazariy jihatlarini atroflicha o'rganadi. Xususan, huquqiy hujjatlarni avtomatlashtirish, mijozlar bilan muloqotni optimallashtirish, huquqiy tahlil va tadqiqot jarayonlarini tezkorlashtirish hamda qaror qabul qilishda sun'iy intellektning yordami tahlil qilinadi. Shu bilan birga, raqamli transformatsiyaning advokatlik faoliyatining axloqiy me'yorlari, maxfiylik va ma'lumotlar xavfsizligiga ta'siri ko'rib chiqiladi. Maqola advokatura sohasida innovatsion yondashuvlarni joriy etish orqali huquqiy xizmatlarning sifati, samaradorligi va foydalanuvchilar uchun ochiqqligini oshirishga qaratilgan istiqbolli yechimlarni muhokama qiladi, shu bilan birga ushbu jarayonda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan huquqiy va axloqiy muammolarni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** Advokatura, advokatlik faoliyati, raqamli transformatsiya, sun'iy intellekt, huquqiy hujjatlar, avtomatlashtirish, huquqiy tahlil, mijozlar bilan muloqot, maxfiylik, axloqiy me'yorlar, ma'lumotlar xavfsizligi, innovatsiyalar, huquqiy xizmatlar, samaradorlik, adolatli xizmat.

O'zbekiston advokatura sohasida raqamli transformatsiya va sun'iy intellekt joriy etish bo'yicha dastlabki qadamlar tashlamoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-avgustdagi "Advokatlik faoliyatini maxsus elektron tizim orqali litsenziyalash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"<sup>1</sup>gi 432-son qarori bilan advokatlik faoliyatini raqamli litsenziyalash joriy etilgan, yangi litsenziyalar Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali berila boshlandi.

Advokatura faoliyatidagi ortiqcha sansalorlik, byurokratiya va qog'ozbozlikni bartaraf etish, sudlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa davlat organlari bilan elektron hujjat almashinuvini yo'lga qo'yish maqsadida 2022-yil 30-mayda O'zbekiston Prezidentining "Advokatura faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga ko'ra muhim o'zgarishlar sifatida quyidagilarni ta'kidlash lozim: advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziya berish jarayoni talabgor tomonidan malaka imtihonini topshirishning amaldagi tartibini saqlab qolgan holda "Litsenziya" axborot tizimi orqali amalga oshiriladi va rasmiylashtiriladi; advokatlik tuzilmalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish, qayta ro'yxatdan o'tkazish va tugatish faqat "yagona darcha" tamoyili asosida O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali elektron shaklda amalga oshiriladi; advokatlik faoliyatini boshlashda malaka imtihonini topshirish, advokatlik

<sup>1</sup> <https://lex.uz/docs/6143599>

faoliyatiga litsenziya olish va advokatlik byurosini davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha kompleks xizmat ko'rsatish alohida ta'kidlangan.

Bundan tashqari, fuqarolarga yuridik yordam ko'rsatish jarayonlarini raqamlashtirish, advokatura sohasini sudlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar, shuningdek, boshqa davlat organlari faoliyati bilan integratsiya qilishni nazarda tutuvchi "Yuridik yordam" axborot tizimining ishga tushirilishi advokatlar uchun qator imkoniyatlar yaratdi. Xususan, advokatlarning elektron reestri va advokatlarning shaxsiy elektron kabinetini shakllantirish, advokat maqomini o'z arizasiga ko'ra to'xtatib turish elektron xabarnoma shaklida amalga oshirilishi belgilandi, advokatlik tuzilmalari tomonidan muayyan ishni yuritish uchun advokatlarga beriladigan an'anaviy shakldagi order maqomiga teng bo'lgan maxsus QR-kodga ega "Elektron advokatlik orderi"ni berish amaliyoti joriy etilmoqda. "Yuridik yordam" axborot tizimi joriy etilishi munosabati bilan asosiy o'zgarishlardan biri advokatlarni inson omilisiz elektron tarzda tasodifiy tanlash orqali davlat hisobidan ishga jalb etish tartibi belgilanganligidir<sup>2</sup>.

Aytishimiz lozimki, hozirda Qozog'istonda Kiberhuquq maktabi ochilgan bo'lib faoliyat yuritib kelmoqda. CyberLaw School – bu advokatlar, huquqshunoslar va axborot xavfsizligi bo'yicha mutaxassislar uchun Internet va ITdan foydalanish bilan bog'liq ishlarda o'zlarining huquqiy malakalarini oshirish imkonini beruvchi intensiv kursdir. Raqamli makonni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda kompetensiyalarni rivojlantirishga, shuningdek, kurs tinglovchilari o'z kasbiy faoliyatida yangi axborot texnologiyalari va raqamli platformalardan foydalanishlari mumkin bo'lgan shunday treninglarga e'tibor qaratiladi<sup>3</sup>.

#### O'zbekiston va xorijiy davlatlarning taqqoslamali tahlili

| Me'zonlar                                  | O'zbekiston                                                                | Xorijiy davlatlar (o'rtacha)                                                                         |
|--------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Raqamli platformalardan foydalanish</b> | 70% advokatlar "Yuridik yordam" tizimiga integratsiya qilingan             | 75-82% advokatlar raqamli platformalardan foydalanadi (AQSh, Buyuk Britaniya, Singapur, 2023)        |
| <b>Sun'iy intellek qo'llanilishi</b>       | 5% huquqiy hujjatlar sun'iy intellekt yordamida tahlil qilinadi            | 40-70% advokatlik firmalari sun'iy intellekdan foydalanadi (Yevropa, AQSh, Singapur, Yaponiya, 2023) |
| <b>Masofaviy xizmatlar</b>                 | 10-25% xizmatlar masofaviy ko'rsatiladi (Toshkentda 25%, viloyatlarda 10%) | 60-75% xizmatlar masofaviy ko'rsatiladi (Buyuk Britaniya, Yaponiya, Avstraliya, 2023)                |
| <b>Ma'lumotlar xavfsizligi</b>             | Blockchain sinov bosqichida; GDPR kabi qoidalar yo'q                       | 80-95% firmalar GDPR yoki shunga o'xshash qoidalarga rioya qiladi (Yevropa, Singapur, 2023)          |

<sup>2</sup><https://www.uzbekistan.org.ua/uz/yangiliklar/7474-advokatura-o-zbekiston-huquq-tizimidagi-eng-muhim-institutga-aylanmoqda.html>

<sup>3</sup> [https://globalcio.com/news/7043/?sphrase\\_id=440](https://globalcio.com/news/7043/?sphrase_id=440)

| Me'zonlar                                  | O'zbekiston                                        | Xorijiy davlatlar (o'rtacha)                                                                 |
|--------------------------------------------|----------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Huquqiy xizmatlar narxi</b>             | Raqamli xizmatlar 15% arzonroq (2023)              | Sun'iy intellekt yordamida xizmatlar narxi 15-30% pasaygan (Singapur, Hindiston, AQSh, 2023) |
| <b>Advokatlarning raqamli savodxonligi</b> | 60% advokatlar raqamli treninglardan o'tgan (2023) | 85-90% advokatlar raqamli kompetensiyaga ega (AQSh, Yaponiya, Singapur, 2023)                |

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekiston advokatura faoliyati qonunchiligiga aniq takliflar va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Xususan, sun'iy intellektni tartibga soluvchi qonunchilik yuzasidan quydagi takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, "Advokatura to'g'risida"gi qonunga sun'iy intellekt asosidagi tizimlardan foydalanishni tartibga soluvchi bo'lim qo'shilishi lozim. Singapur tajribasiga asoslanib, sun'iy intellekt tahlil vositalarining huquqiy mas'uliyati va axloqiy normalari aniq belgililash lozim<sup>4</sup>.

Ikkinchidan, Yaponiya tajribasiga asoslanib, sun'iy intellektdan foydalanishda ma'lumotlar maxfiylikni ta'minlash bo'yicha qoidalar joriy etilishi lozim<sup>5</sup>.

Uchinchidan, GDPR modeliga asoslanib, raqamli tizimlardan foydalanishda ma'lumotlar maxfiylikni himoya qiluvchi maxsus qonun hujjati qabul qilishi zarur<sup>6</sup>.

To'rtinchidan, "Yuridik yordam" tizimida blockchain texnologiyasi joriy etilib, hujjatlarning xavfsizligi kafolatlash maqsadga muvofiq<sup>7</sup>.

Beshinchidan, AQShning ABA tajribasiga asoslanib, advokatlarning texnologik kompetensiyasi litsenziya olishning sharti sifatida belgilash lozim<sup>8</sup>.

Oltinchidan, Advokatlar uchun raqamli malaka oshirish dasturlari majburiy bo'lishi va yillik sertifikatlash tizimi joriy etilishi zarur.

Yettinchidan, Avstraliya tajribasiga asoslanib, masofaviy huquqiy xizmatlarning qonuniy asoslari mustahkamlash kerak. Bu mijozlar uchun qulaylik yaratadi va xizmatlar narxini pasaytiradi<sup>9</sup>.

Sakkizinchidan, Buyuk Britaniya tajribasiga asoslanib, masofaviy sud jarayonlari uchun maxsus modul ishlab chiqish lozim<sup>10</sup>.

To'qqizinchidan, Kanada tajribasiga asoslanib, huquqiy ma'lumotlarni ochiq manba sifatida taqdim etuvchi yagona platforma yaratish. Bu advokatlar uchun qonun hujjatlari va sud qarorlariga tezkor kirishni ta'minlaydi<sup>11</sup>.

O'ninchidan, "Yuridik yordam" tizimiga "ROSS Intelligence<sup>12</sup>" yoki "Luminance"<sup>13</sup> kabi

<sup>4</sup> <https://sso.agc.gov.sg/Act/LPA1966>

<sup>5</sup> <http://www.japaneselawtranslation.go.jp/law/detail/?id=187>

<sup>6</sup> <https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2016/679/oj>

<sup>7</sup> <https://www.eublockchainforum.eu/>

<sup>8</sup> <https://www.americanbar.org/>

<sup>9</sup> [http://www.austlii.edu.au/cgi-bin/viewdb/au/legis/vic/num\\_act/lpul2014214/](http://www.austlii.edu.au/cgi-bin/viewdb/au/legis/vic/num_act/lpul2014214/)

<sup>10</sup> <https://www.gov.uk/guidance/online-court-reform-programme>

<sup>11</sup> <https://www.canlii.org/>

<sup>12</sup> <https://www.rossintelligence.com/>

<sup>13</sup> <https://www.luminance.com/>

sun'iy intellekt asosidagi tahlil vositalari integratsiya qilish. Bu shartnomalar tahlilini tezkor tahlil qilishni ta'minlaydi.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan kelib chiqib xusola qilishimiz mumkinki, O'zbekiston advokaturasi raqamli transformatsiya va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish orqali nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham yetakchi o'rinni egallashi mumkin. Ayni paytda, ijtimoiy adolatni ta'minlash uchun xorijiy tajribasidan foydalanish, kam ta'minlangan fuqarolar uchun huquqiy xizmatlarni qulaylashtirishda muhim ahamiyatga ega.

### References:

#### Используемая литература:

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 14.10.2024-yildagi PQ-358-son/  
<http://lex.uz/docs/-7158604>
2. <https://parliament.gov.uz/articles/868>
3. <https://doi.org/10.52783/jes.3320/>  
<https://journal.esrgroups.org/jes/article/view/3320>
4. [https://university.open.ac.uk/open-justice/sites/www.open.ac.uk.open-justice/files/AI%20Law%20and%20Legal%20Training%20Interim%20Report%20March%202025%20\(AILLT%202025\).pdf](https://university.open.ac.uk/open-justice/sites/www.open.ac.uk.open-justice/files/AI%20Law%20and%20Legal%20Training%20Interim%20Report%20March%202025%20(AILLT%202025).pdf)
5. <https://lex.uz/docs/6143599>
6. <https://www.uzbekistan.org.ua/uz/yangiliklar/7474-advokatura-o-zbekiston-huquq-tizimidagi-eng-muhim-institutga-aylanmoqda.html>
7. [https://globalcio.com/news/7043/?sphrase\\_id=440](https://globalcio.com/news/7043/?sphrase_id=440)
8. <https://sso.agc.gov.sg/Act/LPA1966>
9. <http://www.japaneselawtranslation.go.jp/law/detail/?id=187>
10. <https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2016/679/oj>
11. <https://www.eublockchainforum.eu/>
12. <https://www.americanbar.org/>
13. [http://www.austlii.edu.au/cgi-bin/viewdb/au/legis/vic/num\\_act/lpul2014214/](http://www.austlii.edu.au/cgi-bin/viewdb/au/legis/vic/num_act/lpul2014214/)
14. <https://www.gov.uk/guidance/online-court-reform-programme>
15. <https://www.canlii.org/>
16. <https://www.rossintelligence.com/>
17. <https://www.luminance.com/>